https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

MARDONOVA GULCHEHRA
Navoiy davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi doktoranti
Ilmiy rahbar- Filologiya fanlari doktori ,
dots.Gulchehra Boltayeva

HOFIZ XORAZMIY MUXAMMASI VA UNING OGAHIY IJODI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Kirish

Mumtoz adabiyotimizda har bir ijodkorning o'z o'rni bo'lganidek har bir janrning ham ahamiyati beqiyosdir.Mumtoz adabiyotda g'azal janri kabi musammat janri ham keng tarqalgan.Musammat atamasining lug'aviy ma'nosini ko'pgina ilmiy aadabiyotlarda ,,ipga o'tkazilgan marvarid''mazmunida uchratmiz.Xususan,she'riy asarlarni ilmkiy jihatdan tahlil qilgan, mumtoz adabiyotimizning yetuk namoyondalaridan hisoblanmish Atoulloh Husayniy ,,Badoye us-sanoye'' asarida musammatlarning ta'rifini quyidagicha sharxlaydi:,,Arobiyat arboblaridin bir jamoasi depturlarkim,tasmit lug'atta marvoridni ipga tizmaktur ,islihohda ersa andin iborattturkim ,baytning jami juzvlarin yoki ba'zisin qofiyaga xilof qilib sajlag'aylar va bayt marvorid ipidek va sajlangan juzvlar va anga tizilgan donalardek bo'lg'ay''. Adabiyotshunos olim va ijodkor Maqsud Shayxzoda ham o'z asarida Muallim Nojining ,,Istilohati adabiya''kitobida musammat haqidagi quyidagi fikrlarni keltiradi:,,Musammat deb vazn va qofiyalari bir bo'lgan,bir sira misralarga aytiladiki,ularda har bandning so'ngi bir yoki ikki misra yuqoridagilar bilan qofiyalanmaydi.Agar misralarning banddagi soni to'rt bo'lsa-murabba,besh bo'lsa-muxammas,olti bo'lsa -musaddas,yetti bo'lsa -musabba,sakkiz bo'lsa -musamman,to'qqiz bo'lsa -mutassa,o'n bo'lsa -muashshar deb ataladi''Adabiyotshunos olim Abdurashid Abdug'agurov ,,Alisher Navoiy musammatlari''maqolasida musammat janriga quyidagicha ta'rif beradi:,,Qofiyalanishda g'azal sistemasini saqlagan vahar bandi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3,4,5 va hokazo 10 ga yaqin misralarni jamlovchi bandlardan tashkil topgan she'riy shakllar musammat deyiladi.Boshqacha aytganda,musallas,murabba,muxammas,musaddas,musamman,mutassa va muashsharlar musammatdir''.

Asosiy qism

Musammatlar tarkibiga kiruvchi muxammas janriga diqqat qaratadigan bo'lsak,bu janr o'zbek adabiyotida gazal janridan so'ng keng tarqalgan janrdir.Deyarli barcha ijodkorlar ijodida uhbu janrga xos lirik asarlarni uchratishimiz mumkin. Muxammasning turli lug'atlarda turlicha va bir-biriga yaqin ta'riflari mavjud. Jumladan: "Muxammas (muxammas arabcha. مخمس) "beshlik" degan ma'noni anglatib, Yaqin va O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo she'riyatining bandli she'r shaklidir. She'rning har bir bandi 5 misradan iborat bo'lib, 3 misra she'r muallifiga tegishli, qolgan 2 misra esa boshqa bir she'rdan olingan misralardir.Muxammaslar aaaaa, bbbba, vvvva, ba'zan esa aaaaa, bbbaa tarzida qofiyalanadi. Bandlarning oxirida shoir taxallusi keltiriladi. Bunda muxammasning hamma bandlari bir shoir qalamiga mansub bo'lsa, mustaqil muxammas hisoblanadi. Chunki musammatlar g'azalning har bir bayti ustiga 1 misradan 8 misragacha qo'shish natijasida yuzaga keladi. Muxammas esa g'azal bayti tepasiga uch misra qo'shish orqali hosil qilinadi. Shu bilan birga, muxammas bog'lanayotgan she'r mazmunan bir-biriga yaqin bo'lishi lozim. Muxammasning qofiya tuzilishi ham o'ziga xos: birinchi bandning misralari umumiy qofiya (radif)ga ega bo'lib, qolgan bandlar mustaqil qofiyaga ega bo'ladi. Ba'zan beshinchi misra barcha bandlarda takrorlanadi. Ya'ni shoir band shakli va qofiyani o'zgartirishi mumkin. Bir qator tadqiqotlarda o'zbek mumtoz she'riyatida musammat yozish Hofiz Xorazmiy ijodiyotidan boshlanadi.Xususan,olima Gulnoz Xalliyeva tadqiqotlarida shoirning musammat she'riy shakllaridan bo'lgan 9 bayt 45 misradan iborat muxammas yaratganini ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari, Xorazmiy ijodini maxsus o'rgangan olim Mo'minjon Sulaymonov mulohazlari fikrimiz dalilidir: "Hofiz Xorazmiyning tarkibband va muxammasi, ikki mustazodi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

garchi son jihatidan kam bo‘lsa ham, bu janrlarning o‘zbek adabiyotidagi dastlabki mumtoz namunasi hisoblanishi bilan qimmatlidir” Quyida shu muxammasga diqqat qarataylik:

Eykim,ko’rinur la’li labing shahd ila shakkar

So’z birla labi la’ling erur qandi mukarrar

Santak sanam yo’qdurur ruhi musavvar

Ko’ngul olg’uchi qadi chu sixiy sarvi sanavbar

Kim,bo’lsa sachi sunbulu yuzi guli ahmar.

Yuqoridagi muxammasdan ko’rinib turibdiki, mavzu jihatdan oshiqona tarzda yozilgan va oshiq tomonidan ma’shuqaning tasviri ,go’zalligi an’anaviy poetik obrazlar orqali bayon etilgan.Yorning labi,so’zi,qomati,yuzi va sochini tasvirlash orqali uning husn-u malohatda tengsiz ekanligi ifodalanadi.Shu o’rinda aytish mumkinki,ushbu muxammasda Ogahiy ijodidagi o’ziga xos xususiyatlardan biri bo’lgan klassik badiiy o’xshatishlar asosida ma’shuqa go’zalligini ulug’lash holati ko’zga tashlanadi.Bundan tashqari,muxammasning qofiya tizimi ham an’anaviy tarzda :*shakkar-mukarrar-musavvar-sanavbar-ahmar.*

Ey sarvi sumansoqki,shirin dahaning bor,

Gulning tanntak nozuku zebo badaning bor

Gasht etgali jonimning ichinda chamaning bor

Gul yuzunga bulbul biki zore chu maning bor,

Aylama gul avroqi bikin xotirim abtar.

a-a-a-a-b shaklida qofiyalangan bu baytda ham yorning ta’rifi haqida so’z boradi,lirik qahramonning yor husniga oshiqligini ifodalaydi:sarv kabi qomati ,shirin so’zi,nozik badani va gul yuzini ta’riflab o’zini bulbuldek gulga mushtoqligini ta’kidlab o’tadi.Aynan baytda yorni gulga va o’zini bulbulga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o’xshatish xarakteri mumtoz adabiyotdagi an’anaviylikni davom ettirgan.Ogahiy muxammaslari bilan solishtirganda bu kabi holatlar ba’zi o’rinlarda o’xshashlikni ifodalasa-da,Ogahiy ijodida realistik o’xshatishlar ko’proq ko’zga tashlanadi.Bundan tashqari,Ogahiy muxammaslarida oshiqning iztiroblari ,mashaqqati hamda ma’shuqaning beparvoligi aniq tarzda tasvirlanadi:

Ishq ichra gahi kohu gahi dasht sori chopib,

Har g‘am toshikim otti charx, oldim oni qopib,

Maydoni fanoga kirdim, umr yuzini yopib,

Bir oh ila kul bo‘ldim, ey charx, tilab topib,

Farhod ila Majnunga oshiqlik ishin o‘rgat.

Xorazmiy baytida yorning go’zalligi va oshiqlik zavqi ustun bo’lsa,Ogahiyda esa oshiqning iztiroblari ta’rifi ustun turadi.

Ochgil bu quling yonina ayni inoyat

Chun bandayi ojizmanu san shohi viloyat

Ilgimda manim yoqdurur aqlu kifoyat

Holi ko’nglumni qiladir chehra kifoyat

Chun ishq o’tidin siyna erur xushku ko’zim tar.

Bu baytda oshiq o’zini to’g’ridan tog’ri qul deb ataydi.Ma’shuqani esa hukmdor darajasiga ko’tarib ta’riflaydi.Bu yerda tasavvufiy ma’no yashirin deyishimiz ham mumkin .Qul ya’ni banda va Alloh munosabati oshiq va ma’shuqa tarzida ochib berilgan.Oshiqning ko’ksi ishq alangasida yonib qurib bo’lgan bo’lsada hajr azobida ko’zlaridan haligacha qon oqmoqda.Baytda oshiqning ojizligi ,ishqdan azob tortishi va yorning ulug’ maqomga olib chiqilishi bir

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tomondan Ogahiy muxammaslariga ham o'xshab ketadi.Ogahiy ham ko'pgina muxammaslarida yorni ulug'lab yuksak maqomga olib chiqadi:

Tanimg'a berdi jon, la'li shakar boring'a sallamno

Quloqqa urdi jon ,nag'mayi samar boring'a sallamno

deya yorni ko'kka ko'taradi.

Lutf aylayu g'amgin ko'nglimni qilako'r shod

Bandi g'am elindin mani qil bir yo'li ozod

Mulki ko'nglim ichra g'aming solg'ali bunyod

San bor ekan o'zgadin izdamadi ul dod

Bedodu jafo birla mani aylama muztar.

Ma'shuqaning lutf qilishini kutayotgan oshiq undan bir narsani-g'amgin qalbini shod qilishini so'raydi.Go'yoki oshiq g'am elida bandi bo'lib qolgan-u uni faqat yori qutqara oladi.Ya'ni visol orqali bu g'amlardan ozod bo'lishi mumkin.Ma'shuqa bor ekan lirik qahramon boshqadan najot topmaydi,bu orqali ijodkor oshiqning vafodorligini izohlamoqda.

Jonim ko'zi diydoring ila bo'lg'ali ravshan ,

Mulk-u konglum bo'ldi muhabbat bila Gulshan

Man do'stmanu qilma havola manga dushman

Miskinlik ila qildim eshigingda chu maskan

Miskinlara bo'lg'il bu zamon nosiru yonar.

Oshiq ko'nglining yor visoli bilan ravshan bo'lishini aytadi.U ma'shuqaga sadoqatli do'st ekanligini ta'kidlab ,raqibni yonidan chiqarmasligini aytadi,ya'ni yorini ham vafodor bo'lishga chaqiradi.Chunki ag'yor unga dushman.Keyingi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

misrada oshiq o'zini bir miskinga tenglashtirib yorning eshigi yonida panoh topganligini aytadi va iltijo qilib yoriga miskinlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishini so'raydi.Oshiq ma'shuqa eshigida gadodek turgan bo'lsada faqat u o'z yorini sevadi va unga vafodor.Ogahiy muxammaslarida ham shu mavzuga yaqin baytlar uchraydi:

Ey yor, vafo birla qil olamda madad,

Bevafo el ichra qilma jonimg'a jafo,

Ko'nglumni sitamkashlarga havola qilma,

Do'stga vafo qilmoqdur asl marhamat,

Vafo ahli doimdir saodatguzor.

Ogahiy baytida yorning oshiqqa vafo bilangina madad ko'rsatishi aytiladi.Bevafolarning ichida jafo qilmasligi va uni dushmanlarga havola qilib qo'ymasligi haqida fikr yuritiladi.Vafo ahli doim saodatga erishadi deb vafodorlikni ulug'laydi.

Xulosa

Bir so'z bilan aytganda,Hofiz Xorazmiyning muxammasi o'zbek adabiyotidagi dastlabki muxammas bo'lsa-da,mukammal va to'la tarzda bu janr talablariga javob bera oldi desak,mubolag'a bo'lmaydi.Bu Ogahiy muxammaslari bilan qiyoslaganimizda ham ma'lum bo'ldi.Ikkala ijodkorning muxammaslari g'oya va mazmun jihatdan bir-biriga o'xshash tomonlari borligi bilan birga,farqli jihatlari ham yo'q emas,albatta.Bu asosan muxammasning tuzilishi jihatdan aniq ko'rinib turadi,ya'ni Ogahiy muxammaslarining asosiy qismida radif sifatida so'zlar qo'llangan va Xorazmiy muxammasida bu holat kuzatilmadi.Ammo bu muxammasning talablari va jozibasiga salbiy ta'sir qilmaydi,albatta.Ikkala ijodkor muxammasida ham o'ziga xoslik,estetik did va ichki kechinmalar namoyon bo'lgan.